



## AUTIZM BOLALARDA “PECS” KARTALARINI QO‘LLASH

**Sevinch Axrorova Abrorovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

sevinchaxrorova0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15385499>

### Annotatsiya

Autizm spektr buzilishi (ASB) bolalarda ijtimoiy muloqot, nutq va xulq-atvor rivojida turli darajadagi cheklovlarga olib keladi. Ko‘plab autizmli bolalar og‘zaki nutq orqali fikr bildira olmaydi yoki juda cheklangan so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Bunday holatlarda muqobil va yordamchi kommunikatsiya vositalari, jumladan PECS kartalari, juda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** autizm, PECS, ehtiyoj, nutq, muloqot,

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev qarorlarida, nutqlarida ta‘lim va tarbiya, ularning rivojlanishi, mazkur tizimni isloh qilishning mustahkam asosini yaratish, ong darajasini belgilovchi va uni rivojlanishi, mustaqil fikrlovchi shaxs shakllanishi omillariga alohida e‘tibor qaratilgan. Hozirgi zamon taraqqiy etuvchi, kuchli demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining strategik maqsadlariga erishish ta‘lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning muhim masalalarini o‘zida jamlagan O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirish strategiyasi to‘rtinchi yo‘nalishining amalga oshirilishiga bog‘liq. Zamonaviy jamiyat oldida o‘sib borayotgan avlodni tarbiyalash va ta‘lim berishning istiqbol tizimini yaratish kabi muhim vazifa turibdi.

Mazkur vazifalar rivojlanishida muammolarga ega bo‘lgan, jumladan, Respublikamizda o‘rganilmagan masala – bolalar autizmi tashxisiga ega bo‘lgan bolalarga ham taalluqli.

**Autizm spektr buzilishi (ASB)** — bu bolalarning ijtimoiy muloqot, nutq va xulq-atvorida turli darajadagi qiyinchiliklarga olib keluvchi nevrologik rivojlanish buzilishi hisoblanadi. Ushbu holat bilan tug‘ilgan bolalar atrof-muhit bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelib, nutq rivojlanishida sezilarli orqada qolishlari mumkin. Shu sababli, autizmli bolalarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodlar va yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Autizm spektr buzilishiga (ASB) ega bolalar uchun nutq rivojlanishi murakkab jarayon bo‘lib, har bir bolaning individualligini hisobga olgan holda maxsus yondashuv talab etadi. Nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli metodlar sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar bilan individual tarzda o‘tkaziladigan terapiyalar va multisensor





yondashuvlar eng samarali usullar qatoriga kiradi. Jumladan, amaliy xulq-atvor tahlili - ABA terapiyasi, rasmi muloqot tizimi – PECS terapiyasi hamda nutq terapiyasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar autizmli bolalarning nutqiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi olimlar autizm muammosi bilan shug'ullanganlar: L.Kanner, G.Asperger, S.S.Mnuxin, L.Uing, E.Ornis, K.Djillberg va boshqalar. Autizm sindromi nomi ilk bora 1943 yilda L.Kanner tomonidan tavsiflangan. Kannerdan tashqari mazkur sindrom G.Asperger tomonidan 1944 yilda hamda S.S.Mnuxin tomonidan 1947 yilda tavsiflab berilgan edi.

Erta bolalik autizmi bor bo'lgan bolalarni tarbiyalash, erta bolalik autizmi bor bolalar bilan korreksion ishlarni olib borishning muhimligi, autistik belgilar paydo bo'lishi sabablarini tushunish, bunday bolalarni tarbiyalashda otanonaning roli haqidagi ma'lumotlarning, korreksion ta'sirga ega bo'lgan metodikalarning kamligi va keng tarqalmaganligi muammosi mazkur tadqiqot ishining ahamiyatini hamda autizm bilan kasallangan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi logopedik ish olib borishda mutaxassislar uchun mavjud metodikalar va texnologiyalar bilan tanishish zaruriyatini ta'minladi.

Amaliyotda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga, ayniqsa autizm bilan kasallangan bolalar uchun mo'ljallangan korreksion metodikalar ko'p emas. "Alohida e'tiborga muhtoj" bolaga nisbatan birlamchi tibbiy va psixologik yondashuvdan, shuningdek, pedagogik uslublardan farqlanuvchi 6 asosiy metodika va texnologiyalar mavjud. Bular – TEACCH texnologiyasi, ABA terapiyasi, Son-Rise metodikasi, Sensor integratsiya, PECS terapiya, "Flour Time" texnologiyasi kabi metod va texnologiyalardir.

Shular orasida autizmli bolalar uchun assistive texnologiya sifatida eng ko'p qo'llaniladigan **PECS (Picture Exchange Communication System)** terapiyasi qo'shimcha alternativ muloqot tizimidir. PECS 1985 yilda PhD **Delaver** rahbarligida logoped magistrar **Andy Bondy** va **Lori Frost** tomonidan autizm dasturi ishlab chiqilgan. PECS dastlab autizm spektrining buzilishi (ASB) bo'lgan yosh bolalar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uni qo'llash ancha keng tarqalgan. Yillar davomida PECS turli tashxis va yoshdagi odamlar bilan muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda.

**PECS** funksional muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda juda muvaffaqiyatli bo'lgan dalillarga asoslangan amaliyotdir.

**Rasmi muloqot tizimi (PECS)** og'zaki nutq bilan bog'liq muammolarni yengillashtirishda samarali bo'lib, bolalar va atrofdagilar o'rtasidagi tushunishni yaxshilaydi. Ushbu metoddan foydalangan bolalar og'zaki so'zlashuvni





o'zlashtirishda o'zining aloqa shakllarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lishadi. Shuningdek, PECS yordamida bola xohish-istaklarini aniqroq ifodalay olishi, bu esa uning stress darajasini pasaytirishiga ham yordam beradi.

**PECS kartochkalari** - ASB (autizm) bo'lgan bolalar uchun alternativ muloqot tizimi bo'lib, so'zlamaydigan (NTR, alaliya, afaziya, RRS) bolalarning atrofdagi dunyoga moslashishiga yordam beradi, shuningdek, ABA terapevt, Defektolog, Logoped mutaxassisleri hamda ota-onalar tomonidan nutqni rivojlantiruvchi yordamchi usul sifatida ishlatiladi.

### **PECS kartalarining asosiy bosqichlari**

Frost va Bondy (2002) tomonidan taqdim etilgan PECS tizimi quyidagi 6 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Almashishni boshlash – bola rasmni olib, kattaga uzatadi, shu orqali nimanidir xohlashini bildiradi.
2. Tanlashni o'rgatish – bola ikkita yoki undan ortiq rasm orasidan keraklisini tanlaydi.
3. Birgalikda ibora tuzish – bola “Men xohlayman” degan ibora kartasini kerakli rasm bilan birlashtiradi.
4. So'rovni umumlashtirish – bola turli joylarda va odamlar bilan kartalardan foydalanadi.
5. So'zlashuvni kengaytirish – bola istakdan tashqari ma'lumot, fikr bildiruvchi kartalarni qo'llay boshlaydi.
6. Tashabbuskor muloqot – bola muloqotni o'zi boshlab, atrof-muhit bilan faol aloqa qiladi.

### **PECS kartalarining afzalliklari**

- Muloqotga imkon beradi: og'zaki nutqi cheklangan bolalar o'z fikrini aniq ifoda eta oladi.

- Xatti-harakatni kamaytiradi: tushunarsiz xatti-harakatlar (masalan, yig'lash, baqirish) kamayadi, chunki bola kerakli narsani bildirishi mumkin.

- Mustaqillikni oshiradi: bola o'z ehtiyojlarini mustaqil tarzda ifoda eta boshlaydi.

- Nutq rivojini rag'batlantiradi: ko'plab bolalar vaqt o'tishi bilan og'zaki so'zlardan ham foydalanishni boshlaydi.

### **PECS kartalarini qanday tayyorlash va qo'llash**

- Bola tez-tez foydalanadigan narsalar (ovqat, o'yinchoq, kiyim) rasmlari olinadi.

- Rasmi kartochkalar plastifikatsiya qilinib, mustahkam holga keltiriladi.

- Kartalar bir fayl yoki lenta (komunikatsiya papkasi) ichiga joylashtiriladi.





- O'rgatish bosqichma-bosqich, ijobiy rag'batlantirish asosida olib boriladi (masalan, bola rasmni berganda, darhol kerakli narsani oladi).

Bola 3-5 yoshga kirganidan so'ng, nutq hali chiqmagan bo'lsa, albatta PECS dan foydalanishni boshlash kerak. Chunki bolalar o'z xohishini bildirib, kattalar bilan muloqotga kirishadi. Agar bu narsa yo'q bo'lsa, bolalarda yig'lash, o'zini urish kabi psixologik stresslar paydo bo'lishi mumkin, buning sababi esa, bolalarni atrofdagilar tushunmasligidir.

Autizm bolalarda PECS orqali, vaqti bilan, nutq ham rivojlanishni boshlaydi. Chunki o'rgatilayotgan paytida, har bir kartochni mutaxassislar tarafidan ko'plab takrorlanib, bolaning xulq-atvorini va nutqini yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, PECS tizimi autizm spektridagi bolalar uchun muloqot qilishda kuchli ko'mak vositasi hisoblanadi. U bolaga o'z fikrini ifoda qilishni o'rgatadi, ijtimoiy muloqotga jalb qiladi va ruhiy-emosional holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. PECS tizimini erta yoshdan boshlab, mutaxassislar nazorati ostida qo'llash tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.U. Xamidova Maxsus pedagogika. Toshkent-2018. 95-bet
2. D.A.Nurkeldiyeva, M.U. Xamidova Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. Toshkent-2016. 109-bet
3. Bondy, A., & Frost, L. (2001). The Picture Exchange Communication System. Behavior Modification, 25(5), 725-744. <https://doi.org/10.1177/0145445501255004>
4. Frost, L., & Bondy, A. (2002). The Picture Exchange Communication System Training Manual (2nd ed.). Pyramid Educational Products.
5. Charlop-Christy, M. H., Carpenter, M., Le, L., LeBlanc, L. A., & Kellet, K. (2002). Using the Picture Exchange Communication System (PECS) with children with autism: assessment of PECS acquisition, speech, social-communicative behavior, and problem behavior. Journal of Applied Behavior Analysis, 35(3), 213-231. <https://doi.org/10.1901/jaba.2002.35-213>
6. Ganz, J. B., Simpson, R. L., & Corbin-Newsome, J. (2012). The Impact of the Picture Exchange Communication System on the Communicative Functions of Children with Autism Spectrum Disorders. Journal of Autism and Developmental Disorders, 42, 937-947. <https://doi.org/10.1007/s10803-011-1311-3>

